



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



CONFERENCES.UZ

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil, Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a'zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

Mas'ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz

G'ORLARNING TABIIY GEOGRAFIK JOYLASHUVI VA ULARDAN TURIZMDA FOYDALANISH (SURXONDARYO VODIYSI MISOLIDA)

Shomurodova Shahnoza G'ayratovna

g.f.f.d. (PhD), dotsent

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

Dusboyeva Saodat Ahmad qizi

talaba

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Surxondaryo viloyatida joylashgan g'orlar va ularning tabiiy geografik o'rni haqida umumiy ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, g'orlarning turizmga foydalanish jihatlari keng yoritilgan.

Tayanch so'zlar: tog', g'or, buloq, monoklinal, antiklinal, mo'miyo, qarorgoh, turizm.

NATURAL GEOGRAPHICAL LOCATION OF CAVES AND THEIR USE IN TOURISM (ON THE EXAMPLE OF SURKHANDARYA VALLEY)

Shomurodova Shakhnoza

Dusboyeva Saodat

Annotatsiya: This article provides general information about caves in Surkhandarya region and their natural geographical location. The use of caves in tourism is also widely covered.

Keywords: mountain, cave, spring, monoclinic, anticline, mummy, settlement, tourism.

Mamlakatimizda tog' maskanlari, u yerdagi daryo, ko'llar shu bilan bir qatorda g'orlar bugungi kunda turizmni rivojlantirish uchun tabiiy obyektlardan biri bo'lib hisoblanadi. Surxondaryo vodiysi bugungi kunda turistlarni o'ziga jalb qilayotgan maskanlardan biriga aylanmoqda. Vodiyni o'rab turgan purviqor tog'lar, daryolari-yu, ko'llari hech bir insonni befarq qoldirmaydi. Bu maskanda qadimdan shakllanib kelgan xalqlarning o'ziga xos urf-odatlari, shu bilan birga turizm maskanlari insonlarni o'ziga tortmasdan qo'ymaydi. Vodiyni 3 tomondan o'rab turgan tog'lar o'zining haybati, iqlimi, hayvonot dunyosi bilan ajaralib turadi. Bu tog'larda qadimdan insonlar uchun boshpana

bo'lib kelgan sirli maskanlar-g'orlar joylashgan. Har bir g'or o'zining o'lchami, shakli bilan bir-biridan farq qiladi.

G'or deganda dastlab, bolalik paytimizda kattalardan eshitgan, kitoblardan o'qigan ertak, doston va afsonalardagi ajoyib va sirli dunyo ko'z oldimizga keladi. Vodiyni shimoldan O'zbekistonning eng baland nuqtasi Hazrati Sulton (4647 m) Hisor tizmasida joylashgan. Bu tizma o'z navbatida bir qancha tarmoqlarga bo'linib ketadi. Tizmada: Boybuloq, Festilvalnaya-Muz tushgan, Uralskaya, Bibi Shir Azis, Zaydman va boshqa bir qancha g'orlar joylashgan.

Boybuloq - Hisor tizmasining janubiy qismi bo'lgan Surxontog' tizmasi joylashgan. Bu g'or O'zbekiston ohaktoshlaridagi karst g'ori hisoblanib, O'rta Osiyodagi eng chuqur g'or. G'orning chuqurligi 1430 m, uzunligi-15212 m. Asosiy kirish joyi dengiz sathidan 2647 m balandda joylashgan. Bu g'orga eng yaqin bo'lgan qishloq Dehibolo bo'lib, Boysun tog'ining shimoli-sharqiy qismida joylashgan. G'or yuqori va o'rta yura ohaktoshlarining zirxli karsida, monoklinal qatlamlarda, antiklinalda saqlanib qolgan qismida rivojlangan [1].

Xo'jaipok g'ori - bu g'or Surxondaryoning o'ng irmog'i bo'lgan Xo'jaipak daryosi vodiysida joylashgan. G'ornin uzunligi – 220 km ni tashkil etadi. G'or ichida debiti 20 litr sekundni tashkil qiladigan yirik buloq joylashgan.

Teshiktosh g'ori - dengiz sathidan 1500 m balandlikda va Boysun tog' tizmasida Zovtalashsoy vodiysida joylashgan. Olamshumul yangilik bo'lgan voqea shu g'orda bo'lgan. Bu g'ordan qariyb 300 ming yil ilgari bu hududda ham odamlar yashaganligidan dalolat beruvchi neandertal bola suyaklari topilgan. G'orning shakli ayvonsimon kamarsan iborat bo'lib, uzunligi – 25 m, eni - 22 va balandligi 8 m dir.

Boysun tog'larida olib borilgan izlanishlar natijasida Amir Temur, Mochay kabi g'orlar ham o'rganilgan. Bu g'orlarda paleolit va mezolit davri odamlarining qarorgohlari topilgan.

Qorakamar g'ori - qariyb 2 ming yillik tarixga ega qadimgi g'orlardan biridir. O'zbekiston va Turkmaniston davlat chegarasida, Sherobodning keng tepaligida joylashgan. 1875-yilda geograf va sayohatchi N.A.Mayev tomonidan Sharqiy Buxoro yo'llarini rekognostserovka qilish davrida topilgan. G'or ichidan baqtriya, grek, arab va

boshqa tillaridagi yozuvlar topilgan. Lotin yozuvining topilishi esa katta shov-shuvga sabab bo'ldi. G'orning boshqa g'orlardan farqi uning shahar ko'rinishida ekanligi ya'ni 3 ta katta zal va ko'plab kichkina xonalardan tarkib topganligidir.

G'orlarning hayotimizdagi ahamiyati ulardan topilayotgan qadimgi hayvon suyaklari paleozologlarga o'sha davr fauna komplekslarini tiklashga imkon beradi.

G'orlarning amaliy va ilmiy ahamiyati beqiyos. Avvalo, g'orlarda turli qazilma boyliklar bo'ladi. Dekarativ toshlardan hisoblangan marmar oniksning yuqori sifatlisi g'orlarda hosil bo'ladi. Masalan, Boysun tog'idagi Ajinakamar g'orida M.Mamatqulov va M.Xoshimovlar aniqlagan oniks sifat jihatidan boshqa onikslardan qolishmasligini isbotlashgan.

G'orlarning amaliy ahamiyati ularda mo'miyoning borligidir. Bunday g'orlar respublikamizning deyarli barcha tog'li rayonlarida uchraydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, g'orlarning mo'tadil iqlimi, ulardan meditsina sohasida foydalanish imkonini beradi. G'orlardan sovuqqxona (muzlatgich) sifatida ham foydalansa bo'ladi. Suv, go'sht, yog', meva va boshqalarni o'z holicha saqlashga imkon beradi. G'orning manzarasi, o'simlik dunyosi va hayvonot olami turistik maskan barpo etishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mamatqulov M., Oripov K. Ozbekiston g'orlari. T.: - 1978. 28 b.